

**FAXRIYALARNING MAZMUNIIY TASNIFI VA ULARDA SURUSH OBRAZI****Otaqulova Sarvinoz Fozil qizi**

O‘zRFA o‘zbek tili, adabiyoti va folklori

instituti tayanch doktoranti

+998949435125

sarvinozotaqulova3@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada faxriyalarning mazmuniy tomondan maqsadli, haqqoniy va adolatsiz kabi turlarga bo‘linishi, haqqoniy faxriyalarda faxr, asosan, surush vositasida ifodalanishi kabi masalalar o‘z aksini topgan. Shuningdek, surush obrazining kelib chiqishi borasida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: maqsadli, haqqoniy va adolatsiz faxriyalar, surush, hotif, sraosha.

Аннотация: В статье отражены такие вопросы, как разделение чести по содержанию на целенаправленную, справедливую и несправедливую, а также то, что в чести истинной чести гордость выражается, главным образом, в средствах борьбы. Также были высказаны соображения относительно происхождения образа Суруш.

Ключевые слова: целеустремленные, правдивые и несправедливые ветераны, Суруш, хотиф, сраосша.

Abstract: The article covers issues such as the division of veterans from the substantive side into types such as targeted, truthful, and unfair, and the expression of pride in truthful veterans primarily through the means of push. There were also comments on the origin of the image of surush.

Key words: purposeful, truthful and unjust veterans, ask, Hatif, sraosha.



Faxriya turli janrlar tarkibida uchraydigan, asosan, lirik qahramonning shaxsiy va ijodiy imkoniyatlaridan g'ururlanishi natijasida yuzaga kelgan adabiy usul, badiiy vosita hisoblanadi. Adabiyotshunos Y.Is'hoqov faxriyalarni shartli ravishda mazmuniy tomondan ikki guruhga ajratgan. Birinchi turdagi faxriyalarda shoir asarlarining chuqur mazmun va yuksak pafosda yozilganligi bilan bog'liq xususiyatlaridan iftixori aks etgan bo'lsa, ikkinchi turdagi faxriyalarda shoir ijodiy me'rosining madaniyat va adabiyot olamida tutgan o'rni va mavqeyi haqida so'z boradi¹.

“G'aroyib us-sig'ar”dan olingan quyidagi baytda Navoiy nazmi elni yig'latsa, ajablanmaslikni aytar ekan, devonidagi she'rlarni hajr o'tidan chiqadigan tutundan siyoh sifatida foydalanib yozganini bu holga sabab o'laroq keltiradi. Bu bilan shoir she'rlarining ta'sirli (elni yig'latadigan darajada) va yuksak pafos bilan yozilganligiga urg'u beradi. O'z o'rnida bundan g'ururlanadi:

Ey Navoiy, ne ajab gar nazmim elni yig'latur,
Kim yozilmish hajr o'tining dudasidan daftarim².

Ushbu baytda Navoiy she'rlarining o'ziga xos individual xususiyatlari haqida so'z borganligi uchun bu – shoir ijodining mazmuniga aloqador bo'lgan faxriyalar turkumiga kiradi.

Quyida beriladigan boshqa bir baytda esa shoir o'z ijodining ahamiyatini ko'rsatishga harakat qiladi:

Nazm mulkin til chekib olmish Navoiy uylakim,
Cheksa olamni olur shohi falak miqdor tiyg'.³

Bunda Navoiy til bilan nazm mulkini egallaganini aytar ekan, nazmiy merosining madaniyat olamida yuksak o'rinlarda turishini ochiqalaydi. Ikkinchi misrada esa shoir agar shohim falak miqdoricha tig' cheksa, butun olamni egallashga qodirdir deb, o'zining ijodda, hukmdorining kuch-qudratda tengsizligini ta'kidlaydi.

Yoki:

¹ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. –Б.256

² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 6-том. – Т.: Фан, 1990. –Б.289

³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 3-том. – Т.: Фан, 1988. –Б.246



Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.⁴

Ushbu baytda Navoiy turkiy tilda ijod qilishni boshlab berib, bu tilni davlat tili darajasiga ko'tarilishiga hissa qo'shganligidan faxrlanadi. Yuqoridagi ikki misol ham shoir ijodiy merosining adabiyot va ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini ko'rsatib beruvchi faxriyalardir.

“Adabiy tur va janrlar” kitobida “faxr islomgacha bo'lgan qasidada uning bosh qismidir. Shoir unda o'zini, o'z urug'ini va jasoratini maqtashi”⁵ to'g'risidagi fikrlar keltiriladiki, biz buni islomgacha bo'lgan adabiyotlardan “Avesto”, “Eski turk she'r”larida ko'rib o'tdik. Shuningdek, ushbu kitobda faxriyalar qadimdan uch turli bo'lganligi aytilib, quyidagicha tasniflanadi:

– Faxriyalarning birinchi turi muayyan maqsadni ko'zlagan faxriya bo'lib, shoir unda o'zini boshqa shoirdan ustun qo'yadi yoki buyuk shoirlarga tenglashtirib keladi.⁶ Faxriyaning bu turiga misol tariqasida ushbu baytni keltirish mumkin:

Navoiy nazm aro tig'i zaborin uyla surdikim,

Pichoq topmas uyatdin o'zni o'lturmakka Sakkokiy.⁷

Baytda Navoiy o'zini nazm bobida, hatto, Sakkokiydan ham ilgari lab ketganini, bundan Sakkokiy uyatda qolganini mubolag'ali holda tasvirlaydi. Bu bilan ijodiy mahoratini ustoz shoir Sakkokiyga tenglashtiradi.

– Ikkinchi xili esa haqqoniy faxriya bo'lib, unda shoir o'zini maqtashga haqliday his etadi.⁸ Faxriyaning bu turida faxrlanish aksariyat holatlarda shoirning o'z tilidan bayon etilmaydi. To'g'rirog'i, lirik qahramon biror sohada o'zini maqtashga loyiq deb his etadi va shu maqto'vni kamtarlik yuzasidan surush tilidan bayon etadi.

Umuman, faxriya baytlar shoirning o'zi yoki g'oyibdan kelgan tovush, ya'ni, surush (xotif) tomonidan aytiladi. Surush so'zi dastavval “Avesto”da Sraosha ma'budining nomi

⁴ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 12-том. – Т.: Фан, 1996. –Б.330

⁵ Каримов Э., Саримсоқов Б. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик, 2-жилд. – Т.: Фан, 1992. –Б.179

⁶ Ўша китоб. – Т.: Фан, 1992. –Б.179

⁷ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 4-том. – Т.: Фан, 1989. –Б.424

⁸ Каримов Э., Саримсоқов Б. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик, 2-жилд. – Т.: Фан, 1992. –Б.179



sifatida keltiriladi. Kitobda bu ma'bud “g'olib, muqaddas, ajr beruvchi, mehribon, botir, qudratli kabi sifatlar bilan zikr etilgan.”⁹ Surush zardushtiylik dinida itoatkorlik, farmonbardorlik, bo'ysunish ilohi¹⁰ hisoblangan. “Avesto”da surush porso so'zi bilan birikmali holda berilgan. Porso so'zining lug'aviy ma'nosi taqvodor deganidir. Shu o'rinda surushga xos xususiyatlardan biri taqvodorlik ekanligi ham ayon bo'ladi. Surushga nisbatan porso so'zining qo'llanishi keyinchalik “uni komil insonning ramzi sifatida talqin qilinishiga zamin yaratgan. Navoiy she'riyatida surush farishta, komil inson, g'aybdan yetgan ilhom ma'nosida keltirilgan.”¹¹ Ba'zi manbalarda surush Jabroil alayhissalom bilan teng qo'yiladi. Bu qarashga kelishga esa ikkala farishtaning farmonbardor va itoatkorlik xususiyatlari asos qilib olingan. XV asrga kelib surush orqali fikrni bayon etish adabiy usulga aylana boshlagan. Shoirlar yirik asar yozish oldidan o'zlarida ojizlik va ishonchsizlikni his qilishgan. Bunday vaziyatlarda dalda berish maqsadida surush biror bir asarni yoza olishi haqida ijodkorlarga ilohiy xabar keltiradi. Ilohiy xabar aksariyat hollarda madh va faxriya ruhida bo'ladi. Ya'ni, surush shoir ijodiga tahsin o'qib, yangi asarini ham mukammal yoza olishiga ishonch bildiradi.

Surush (xotif) obrazi Navoiy dostonlarida keng qo'llangan. “So'z san'ati so'zligi”da surushning “Xamsa”dagi ikki vazifasi alohida ta'kidlanadi. Birinchi vazifasi “ijodkor ikkilanish, jur'atsizlik holatiga tushgan paytida uni o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch tug'dirib, faollikka chorlovchi va qat'iy ishonch bilan ishga kirishga undovchi ijobiy kuch. Ikkinchisi esa, ma'lum asar yozish oldidan shoir boshidan o'tqazayotgan kechinmalarni ochib berish vositasidir. Navoiy “Xamsa” yozishga kirish oldidagi chuqur ruhiy kechinmalari (kuchli orzu va ulug' vazifa qarshisidagi hadiksirash o'rtasidagi kurash)ni nihoyatda samimiy tasvirlaydi. Shoir ana shunday chuqur mulohazalar girdobida turgan bir paytda surush hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.”¹² Bu obraz, asosan, dostonlarning muqaddima va xotima qismlarida uchraydi.

Bu g'amdin menda qolmay aql-u hushe,

⁹ Қаюмов А., Ганиева С. ва б. Алишер Навоий. Қомусий луғат. 2 жилдлик, 1-жилд. – Т.: Шарк, 2016. – Б.529

¹⁰ Авесто. Форс тилидан Аскар Маҳкам таржимаси. – Т.: Ғафур Ғулум, 2015. –Б.81

¹¹ Қаюмов А., Ганиева С. ва б. Алишер Навоий. Қомусий луғат. 2 жилдлик, 1-жилд. – Т.: Шарк, 2016. – Б.529

¹² Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. –Б.178



Bu nav' etti nido nogah surushe
Ki, ey kunji malolatning xumuli,
Tushub dard-u balo ko'nglung qabuli.
Chu sen mundin burun xomang qilib tez,
Suman bargini qilding sunbulomez...
Qo'yub vayronalarda telbalikni,
Yana bir ganj sori sun ilikni.
Yana bir konni qazmog'liqqa mayl et,
Qazib ahbob aro naqdin tufayl et.¹³

Doston muqaddimasidan olingan parchada shoir “Farhod va Shirin”ni yozish oldidan qo'rquv va g'amga tushib turganida surush kelib bundan avval ham xazina kabi asarlar yozganini, bu dostonini ham mukammal tarzda yoza olishiga dalda beradi. Bunday vaziyatlarda shoir o'zini faxrlanishga loyiq kabi his qiladi, ammo buni to'g'ridan to'g'ri, bevosita ifodalashni istamaydi va ijodiy imkoniyat olamini surush tilidan ochiqlyadi.

Faxriyani surush vositasida ifodalash faqatgina dostonda emas, balki oz bo'lsa-da, g'azallarda ham uchrashini aniqladik. Keltiradigan ushbu bayt bunga yorqin misol bo'la oladi:

Dedim, nazm ahlining sarxayli kim bo'lg'ay, dedi hotif,
Navoiy bo'lgay, ulkim sen tilaydursen agar bo'lg'ay.¹⁴

Yuqoridagi baytga ko'ra, shoir nazm ahlining yo'l boshchisi kim bo'ladi deb so'raganda, hotif: agar istasa, Navoiy, albatta, nazm ahlining rahbari bo'ladi, deb javob qaytaradi. Bu bilan shoir ijodiy salohiyati bilan she'riyat ahliga yo'l boshchilik qila olishi mumkinligidan g'ururlanadi. Ammo iftixor tuyg'usi bevosita emas, balki bilvosita hotif tilidan bayon etiladi. Adabiyotda hotif va surush so'zlari ekvivalent sifatida tushunilib, bir-birining o'rnida almashib qo'llanaveradi. Chunki ikkalasining ham vazifasi xabar yetkazishdir. Demak, faxriya ruhini surush vositasida ifodalash yuqorida ko'rib o'tganimiz faxriyaning ikkinchi turini hosil qilar ekan.

¹³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 8-том. – Т.: Фан, 1991. –Б.36-38

¹⁴ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 4-том. – Т.: Фан, 1989. –Б.445



– Faxriyaning so‘nggi turi esa adolatsiz faxriya bo‘lib, unda maqtanish aslida o‘rinsiz hisoblanadi.¹⁵

B.Valixo‘jayev faxriya borasidagi fikrlarni davom ettirib, “O‘rta Osiyo xalqlari ijodida bu nomda adabiy janr mavjud bo‘lmasa-da, ammo adabiy-tanqidiy qarashlarni ifoda etish vositalaridan biri sifatida ushbu badiiy vosita qo‘llanishi”¹⁶ ni aytib o‘tadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, faxriyalar turli lirik janrlar tarkibida kelib, mazmuniy jihatdan maqsadli, haqqoniy va adolatsiz faxriya kabi turlarga ajraladi. Faxriya baytlar esa shoir tilidan yoki surush vositasida bayon etilib, hotif tilidan faxriyalarni ifodalash, asosan, haqqoniy faxriyalarda o‘z aksini topadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Авесто. Форс тилидан Асқар Маҳкам таржимаси. – Т.: Фафур Фулом, 2015.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 3, 4, 6, 8, 12-томлар. – Т.: Фан, 1988-1996.
3. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993.
4. Исхўқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014.
5. Каримов Э., Саримсоқов Б. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик, 2-жилд. – Т.: Фан, 1992.
6. Қаямов А., Ганиева С. ва б. Алишер Навоий. Қомусий луғат. 2 жилдлик, 1-жилд. – Т.: Шарқ, 2016.

¹⁵ Каримов Э., Саримсоқов Б. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик, 2-жилд. – Т.: Фан, 1992. –Б.179

¹⁶ Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993. –Б.10